

## **“Algebra” mavzusiga oid didaktik ishlanmalar**

Jizzax davlat pedagogika instituti  
matematika yo’nalishi 2-bosqich magistranti  
Tojiboyeva Dilafro’z Nuriddin qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Algebra va sonlar nazariyasi “Algebra” mavzusiga oid didaktik ishlanmalar keltirilgan. Bu didaktik ishlanmalardan ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda foydalanish mumkin.

**Kalit so’zlar:** baliq skeleti metodi, 3\3, 4\4 yoki 5\5 metodi, o’yin texnologiyalari, matematik loto o’yini, test.


To’g’ri tanlangan metodlarni qo’llash mashg’ulotning qiziqarli va samarali bo`lishini ta`minlaydi. Talaba o`zi o`rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o`rgata olmaydi. O’qituvchi talabalarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi. Bilim borliqdan ko`chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi. Interfaol usulda o`tilgan darslarda talaba faqat ta`lim mazmunini o`zlashtirib qolmay, balki o`zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

### Baliq skeleti [1]

Baliq skeleti bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa ushbu kichik muammolar

Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o’zlarining chizmalarini to’ldiradilar. Umumiy chizmaga



### 3/3, 4/4 yoki 5/ 5 metodi.

Ushbu metodni darsning takrorlash, umumlashtirish jarayonida qo'llash mumkin.

O'tkazilish tartibi:

Talabalarni guruhlarga bo`lamiz.O`rganilgan mavzu yuzasidan topshiriq beriladi.Masalan bugun talabalar ”Algebraclar gomomorfizmi va izomorfizmi” mavzusini o`rganishgan.

Topshiriq: Har bir guruh ”3/3 metodi” bo`yicha ”Algebraclar gomomorfizmi va izomorfizmi” haqida 3ta aniq ma'lumot va 3 ta mos kelmaydigan ma'lumotni yozishadi.Ma'lumotlarni joylashtirish tartibi chalkashtirilgan bo`lishi shart.Bir guruhning ma'lumotlarini ikkinchi bir guruh tekshiradi.Ular aniq ma'lumotlarga belgi qo'yishlari kerak.

Berilgan vaqt o`z nihoyasiga yetgach tekshirgan guruh taqdimotga chiqadi.Taqdimot vaqtida har bir guruh o`z ishining to`g`ri yoki no`to`g`ri tahlil qilinganligini kuzatib tasdiqlab turadi.

Masalan bir guruhning bugungi mavzu yuzasidan ”3/3 metodi ” bo`yicha yozgan ma’lumoti quyidagicha bo`lishi mumkin.

1.A va A' to’plamda aniqlangan algebraik amallar soni teng bo’lib,A to’plamda aniqlangan  $f_i$ ( $i = 1, k$ )algebraik amallarning rangi bilan A' to’plamda aniqlangan va  $f_i \in F$  amallarga mos keluvchi  $f'_i \in F$  algebraik amallarning ranglari o’zaro teng bo’lsa,  $A = < A, F >$ ,  $A' = < A', F' >$ algebraclar o’zaro bir xil turli algebraclar deyiladi.

2. $\langle R, +, 0 \rangle$  va  $\langle R, \cdot, 1 \rangle$  algebraclar bir xil turli algebraclar emas.

3. Agar A algebraning A' algebraga  $\varphi$  gomomorf akslanishi biektiv akslantirish bo’lsa, u holda A algebra A' algebraga izomorf deyiladi.

4. $N_0 = \{0, 1, 2, \dots, n, \dots\}$ bo’lganda N= $\langle N, +, \cdot \rangle$  algebra va  $\langle Z, +, \cdot \rangle$  algebra uchun qism algebra bo’ladi.

5. A algebraning A' algebraga gomomorfligi  $A \cong A'$  orqali belgilanadi. Agar  $A \cong A'$  bo’lsa, u holda A' algebra A algebraning gomomorf obrazi deyiladi.

6. Bo’sh bo’lmagan A to’plam, unda aniqlangan  $F = \{f_1, f_2, \dots, f_n\}$  algebraik amallar va  $\Omega = \{\omega_1, \omega_2, \dots, \omega_s\}$  munosabatlarning tartiblangan uchligi model deb ataladi. (1,3,4- ma’lumotlar aniq ma’lumotlar hisoblanadi.)[2]

(4/4, 5/5 – metodlarida ham yuqorida ko’rsatib o’tilgan tartibda ish olib boriladi, faqat 3ta ma’lumotni o’rniga 4ta yoki 5ta ma’lumotni yozishlari so’raladi)

Berilgan vaqt o’z nihoyasiga yetgach har bir guruhning taqdimoti tinglanadi.

### O`yin texnologiyalari

O`yin, mehnat va o`qish inson faoliyatining asosiy turlaridir.O`yin ijtimoiy tajribani qayta yaratish va o`zlashtirishga qaratilgan faoliyat turi bo`lib, u orqali insonning o`z-o`zini boshqarish ko`nikmalari rivojlanadi. O`yin shunday faoliyatki, uning natijasigina emas, balki jarayonning o`zi ham insonga zavq bag`ishlaydi. O`yin faoliyati ijod uchun imkon beradi, his- tuyg`ularni kuchaytiradi.

Mashg`ulot jarayonida o`yin ta'lim oluvchilarni o`quv jarayoniga undovchi vosita vazifasini bajaradi. Bunda:

- ta'lim maqsadi o`yin sharti sifatida qo`yiladi;
- o`quv faoliyati o`yin qoidalariga bo`ysinadi;
- o`quv materiali o`yin orqali taqdim etiladi;
- bellashuv elementi olib kiriladi;
- didaktik masalaning yechilishi o`yin natijasi bilan bog`lanadi.

O`yinlar qoidasi “qat’iy” yoki “qat’iy bo`lmagan”, oldindan qabul qilingan yoki o`yin davomida tuziladigan bo`lishi mumkin.

### **Matematik loto o`yini**

Matematik loto o`yini biror mavzu yoki bob bo`yicha bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash yoki nazorat qilish maqsadida o’tkazilishi mumkin.

O`yin qoidalari:

O`yinda 5 ta komanda qatnashadi.Har bir komandaga 6 ta savol nomerlari yozilgan varaqlar tarqatiladi.

O`qituvchi boshlovchi sifatida qopdan loto o`yini toshlarini birin ketin oladiva toshning nomerini e’lon qiladi. Qaysi komanda varag’ida e’lon qilingan tosh nomeri bo’lsa, o’sha komanda javob berish huquqini oladi.

O`qituvchi shu nomerli savolni o’qiydi.Agar komanda savolga to’g’ri javob bersa, loto toshi ularga beriladi. Tosh komanda varag’idagi mos nomer ustiga qo`yiladi. Agar komanda to’g’ri javob bera olmasa, loto toshi boshlovchida qoladi va savolga javob berish boshqa komandalarga o’tadi.To’g’ri javob bergen komandaga jeton beriladi. Bu jettonni o`yin davomida komanda o’zi uchun kerakli boshlovchida qolgan loto toshiga almashtirib olishi mumkin.

Qaysi komanda o’z varog’idagi barcha sonlarni mos loto toshlari bilan yopa olsa, o’sha komanda g’olib deb topiladi.Qolgan komandalar varog’i ustiga qo`yilgan, yiqqan loto toshlari soniga qarab tegishli o’rnlarni egallaydi.

Savollar[3], [4]

- 1.Binar algebraik amallarga muktab matematikasidan misollar keltiring.
- 2.Binar amallarning turlarini ayting.

- 3.n-ar algebraik amal ta'rifini ayting.
- 4.Unar algebraik amalga misol keltiring.
- 5.Gruppoid nima?
- 6.Neytral element va uning xossalari ayting.
- 7.Simmetrik element va uning xossalari ayting.
- 8.Regulyar elementlar xossalari ayting.
- 9.Gruppoidning neytral elementi xossalari ayting.
- 10.Gruppoidning regulyar elementi ta'rifi ayting.
- 11.Yarimgruppa deb nimaga aytildi?
- 12.Monoid deb nimaga aytildi?
- 13.Gruppa ta'rifi va uning asosiy xossalari ayting.
- 14.Gruppalar gomomorfizmining qanday turlarini bilasiz.
- 15.Gruppalar avtomorfizmi nima?
- 16.Gruppaosti tushunchasiga misollar keltiring.
- 17.Abel gruppa deb nimaga aytildi?
- 18.Multiplikativ gruppa deb nimaga aytildi?
- 19.Additiv gruppa deb nimaga aytildi?
- 20.Gruppaning tartibi deb nimaga aytildi?
- 21.Chekli tartibli gruppa deb nimaga aytildi?
- 22.Cheksiz tartibli gruppa deb nimaga aytildi?
- 23.Halqa va uning turlarini ayting.
- 24.Halqalar gomomorfizmini tushuntiring.
- 25.Qism halqa va uning xossalari tushuntiring.
- 26.Algebra tushunchasiga maktab matematikasidan misollar keltiring.
- 27.Algebraning turi qanday aniqlanadi?
- 28.Algebraclar gomomorfizmini tushuntiring.
- 29.Yarim halqa deb nimaga aytildi?
- 30.Maydon deb nimaga aytildi.

1-varaq		
1	10	21
15	30	28

2-varaq		
3	11	26
12	25	24

3-varaq		
17	23	20
5	13	7

4-varaq		
14	9	2
16	4	27

5-varaq		
8	18	22
19	6	29

### Test

1.  $\forall x, y \in R$   $x * y = x^2 - 2xy$  bo'lsa  $3*(2*4) = ?$

- A) 4    B) 9    C) 16    D) 49    E) 81

2. R dagi  $x * y = x + y + 5$  shaklida berilgan "\*" amaliga ko'ra a sonining teskari qaysi biri?

- A)  $a+10$     B)  $-a+10$     C)  $a-10$     D)  $-a+9$     E)  $-a-10$

3. R dagi  $x * y = -3x - 3y + xy + 12$  shaklida berilgan "\*" amaliga ko'ra qaysi elementning teskarisi yo'q ?

- A) 0    B) 3    C) 9    D) 10    E) 12

4.  $\forall x, y \in R$  uchun  $x * y = x+y+3$  shaklidagi amaliga ko'ra -4 ning teskarisi qaysi biri?[13]

- A)-3 B)-2 C)-1 D)0

5. Quyida berilgan to'plamlardan qaysilari gruppaga tashkil qiladi?

- 1)  $(\mathbb{Z}, +)$ ; 2)  $(\mathbb{Q}, +)$ ; 3)  $(\mathbb{Z}, \cdot)$ ; 4)  $(\mathbb{Q}, \cdot)$ ; 5)  $(\mathbb{Q}, \{0\}, +)$

- A)1,5; B) 1,2; C)3, 4; D)2,5

6. Nolning bo'lувchilariga ega bo'luman assotsiativ, kommutativ halqada  $1 \neq 0$  shart bajarilsa bunday halqa qanday nomlanadi?

- A)izomorf halqa B) halqaosti C)butunlik sohasi D)maydon

7. Quyidagilardan qaysi biri noto'gri?

- A) $\langle \mathbb{Z}, +, \cdot, - \rangle$  algebra (2,2,2) turli algebradir.

B) Mulohazalar ustida bajariladigan(inkor amalidan boshqa)mantiqiy amallar mulohazalar to'plamida binar algebraik amallar bo'ladi.

C) Ikki vektoring skalyar ko'paytmasi ham binar algebraik amaldir.

D) Natural sonlar to'plamida aniqlangan ayirish amali binar algebraik amal bo'lmaydi.

8. Butun sonlar to'plami uchun qaysi amallar binar algebraik amallar bo'la oladi?

- A) qo'shish B) ayirish C) ko'paytirish D) barchasi

9. Quyidagi algebraning turini aniqlang?  $\langle \mathbb{N}, +, \cdot, 1 \rangle$

- A)(2,2,2) B) (2,2,1) C)(2,2,2,2) D)(2,2,0)

10. Quyidagi algebralardan qaysi birlarida bittadan binar va bittadan nular algebraik amal aniqlangan?

1)  $R = \langle R, +, 0 \rangle$ ; 2)  $R = \langle R, +, \cdot \rangle$ ; 3)  $R' = \langle R^+, \cdot, 1 \rangle$ ; 4)  $\mathbb{N} = \langle \mathbb{N}, +, - \rangle$

- A)1,2 B) 2,3 C)1,3 D) E)2,4

11. Gruppani o'zini o'ziga gomomorf akslantirish.....deyiladi.

- A) endomorfizm B) aftomorfizm C) izomorfizm D) epimorfizm

E) monomorfizm

12. Gruppani o'ziga o'zini izomorf akslantirish.....deyiladi.

- A) endomorfizm B) aftomorfizm C) izomorfizm D) epimorfizm E) monomorfizm

13. Gruppadagi binar algebraik amal " $\cdot$ " bo'lsa, bunday gruppaga qanday nomlanadi?

- A) multiplikativ B) additiv C) kommutativ D) abel E) assosiativ
14. Gruppadagi binar algebraik amal " + " bo'lsa, bunday grupper qanday nomlanadi? [16]
- A) multiplikativ B) additiv C) kommutativ D) abel E) assosiativ
15. ( $A, *$ )-gruppoid berilgan bo'lsin, agar  $\forall a, b \in A$  uchun  $a * b = b * a$  bo'lsa, u holda "\*" -amali algebraik amal A to'plamida qanday nomlanadi?
- A) multiplikativ B) additiv C) kommutativ D) abel E) assosiativ
16. ( $A, *$ )-gruppoid berilgan bo'lsin, agar  $\forall a, b, c \in A$  uchun  $a * (b * c) = (a * b) * c$  shart bajarilsa, "\*" -amali algebraik amal A to'plamida qanday nomlanadi?
- A) multiplikativ B) additiv C) kommutativ D) abel E) assosiativ
17. ( $A, *$ )-gruppoidda "\*" -assosiativ amal bo'lsa, bunday gruppoid.... deyiladi.
- A) monoid B) qism gruppoid C) yarimgrupper D) abel grupper E) additiv grupper
18. Neytral elementga ega bo'lgan yarimgrupper nima deyiladi? [14]
- A) monoid B) qism gruppoid C) assosiativ grupper D) abel grupper E) additiv grupper
19. Bir o'rinnli algebraik amal qanday nomlanadi?
- A) binar B) unar C) ternar D) nular E) n-ar
20. Gruppadagi amal kommutativ, ya'ni  $\forall a, b \in G$  uchun  $a * b = b * a$  shart bajarilsa, bunday grupper qanday nomlanadi? [17]
- A) multiplikativ B) additiv C) kommutativ D) abel E) assosiativ

Ushbu didaktik ishlanmalardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda foydalanish "Algebraclar" mavzusini o'qitishda samarali yordam beradi. Bu yerda baliq skeleti metodidan foydalanish talabalarining tizimli fikrlashlariga imkon yaratса, 3\3, 4\4, 5\5 metodi esa ularning diqqatini oshiradi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish talabalarining kayfiyatini ko'tarib, dars jarayonining qizg'in o'tishiga yordam beradi. Test esa ularning olgan bilimlarini baholashda, umumiy takrorlashda ancha samarali usul hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.D.I.Yunusova "Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari". Toshkent-2010.

2. R.N.Nazarov, B.T.Toshpo'latov,A.D.Dusumbetov "Algebra va sonlar nazariyasi I qism". Toshkent-1993.
3. A.Yunusov, D.Yunusova "Algebra va sonlar nazariyasi". Toshkent-2007.
4. M.J.Rustamov "Algebra va sonlar nazariyasi" o'quv qo'llanma .Jizzax - 2021.